

**TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKILLASHTIRISH
ORQALI IJODIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHNING
MUHIM ASPEKTLARI**

B. A. Bobojonov,
TIQXMMI MTU, O'qitish
nazariyasi va metodikasi
kafedrası o'qituvchisi

bobomurod1975@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14200429>

Annotatsiya: Mazkur maqola “Talabalarning mustaqil ishlarini tashkillashtirish orqali ijodiy faolligini rivojlantirishning muhim aspektlari” mavzusida bo'lib, chet tillarini o'rganish jarayonida an'anaviy va noan'anaviy usullar va texnologiyalarga tayangan holda o'quvchilarning mustaqil chet tillarini o'rganish ko'nikmalarini mohirona tashkil etish orqali mustaqil fikrlashini va ijodiy faolligini rivojlantirishning asosiy jihatlarini yoritib berishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, mustaqil fikrlash, tadqiqotchilik, kreativ fikrlash, loyiha, o'z-o'zini baholash.

Annatation: This article is devoted to the topic "Important aspects of the development of students' creative activity through the organization of independent work", and in the process of studying foreign languages, relying on traditional and non-traditional methods and technologies, students skillfully develop the skills of independent study of a foreign language, dedicated to covering the main aspects of the development of independent thinking and creative activity through organization.

Keywords: independent learning, independent thinking, research, creative thinking, project, self-assessment.

Zamonaviy ta'lim muassasalari tizimida bugungi kunda chet tillarni mustaqil o'rgatish va o'rganish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bunday ta'limni tashkil etish masalasi rivojlangan jamiyatning ustuvor ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy masalasiga aylandi.

Bu haqida O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi ta'lim to'g'risidagi O'RQ-637-sonli qonunida ham mustaqil ta'lim olish shartlari to'g'risida alohida ko'rsatib o'tilgan.

Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim jarayonini amalga oshirishda tizimli ishlarni yo'lga qo'yish, talabalarni mustaqil ishlashga o'rgatish ijodiy va ijtimoiy faol, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda o'z o'rnini topa olish malakasiga ega bo'lgan, maqsadli vazifalar qo'yish va hal qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga asos bo'ladi.

Ushbu maqolaning mavzusi “Talabalarning mustaqil ishlarini tashkillashtirish orqali ijodiy faolligini rivojlantirishning asosiy aspektlari” deb nomlanadi va uning

asosiy maqsadi chet tillarini o'rganish jarayonida an'anaviy va noan'anaviy usullar va texnologiyalarga tayangan holda mustaqil chet tillarini o'rganish ko'nikmalarini mohirona tashkil etish, o'quvchilarda mustaqil fikrlashni va ijodiy faollikni rivojlantirishga qaratiladi. Shu bilan bir qatorda talabalarning mustaqil ta'lim olishlari, mustaqil ishlashni tashkillashtirish orqali ularning ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini va zaruriy kompetentsiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi.

Mashhur olim Benjamin Blum ta'limda mustaqil ishlarni tashkil etishning kognitiv darajalarini ishlab chiqqan. U bilimlarni o'zlashtirish jarayonini bosqichlarga ajratgan. Blum taksonomiyasi o'quvchilarning fikrlash darajalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu jarayonda mustaqil ishlarning roli katta ekanligini ko'rsatadi. U bilimlarni o'zlashtirishni tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish va baholash kabi bosqichlarga bo'lib o'rgangan.

Umuman ta'limda mustaqil ishlarni tashkillashtirish mavzusi turli davrlarda turli nazariy asoslar bilan o'rganilgan. Bugungi kunda bu mavzudagi tadqiqotlar pedagogik texnologiyalar, ta'limda raqamli innovatsiyalar va masofaviy ta'lim bilan bog'liq holda davom ettirilmoqda. Mustaqil ishlarning ta'siri, shakllari va samaradorligini tahlil qilish orqali, ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqilligini oshirishga qaratilgan yangi metodlar paydo bo'lmoqda.

Mustaqil ish - bu o'quvchilarning o'z bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, o'z-o'zini o'rganish va ijodiy faoliyatini oshirish maqsadida bajaradigan ishlaridir. Bu ishlar o'quvchilarga muammolarni hal qilish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va o'z fikrlarini ifodalashda yordam beradi.

Ta'lim jarayonlarida chet tillarni o'qitishda asosan mustaqil ishlarni tashkil etishning quyidagi jihatlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- **Ma'lumotga asoslangan rejalashtirish:** Mustaqil ishlar asosan o'quv dasturi va mavzularga mos ravishda rejalashtiriladi. Bunda o'quvchilar uchun aniq maqsadlar va vazifalar belgilanishi lozim bo'ladi.
- **Resurslarni tayyorlash:** O'quvchilarga kerakli resurslar, manbalar va boshqa materiallar taqdim etilishi kerak. Bu materiallar mustaqil ishlar uchun yordam beradi.
- **Natijalarni baholash:** Mustaqil ishlar tugagach, o'quvchilarning natijalarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish lozim. Bu o'quvchilarning o'z-o'zini baholash imkoniyatini yaratadi.

- *Loyihalar asosida o'qitish:* O'quvchilarga aniq loyiha topshiriqlari berish, bu jarayonda ularning ijodiy yondashuvlarini rivojlantiradi. Masalan, o'quvchilar biror muammoni hal qilish yoki yangi g'oyani ishlab chiqish maqsadida loyiha yaratishlari mumkin.
- *Tadqiqot ishlarini bajarish:* O'quvchilar mustaqil ravishda tadqiqot olib borishlari kerak. Bu jarayon ularning analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va ijodiy yechimlar topishga yordam beradi. Tadqiqotlar uchun mavzularni tanlashda qiziqishlarini hisobga olish lozim.
- *Ijodiy amaliyotlar:* O'quvchilar amaliy mashg'ulotlar orqali ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Masalan, chet tili darslarida ushbu amaliyotni ko'proq adabiy mavzularda, she'rlarni rollarga bo'lib o'qish yoki biron bugungi kunda dolzarb mavzudagi muommoli vaziyatlarni guruhlarda teatrlashtirish orqali rivojlantiriladi.
- *Guruhli faoliyatlar:* O'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib, birgalikda muammo yechish, g'oyalar almashish va ijodiy yechimlar ishlab chiqish imkoniyati beriladi. Guruhda ishlash orqali o'zaro tajriba almashish va kreativ fikrlashni oshirish mumkin.
Asosan quyidagi asosiy aspektlar talabalarning chet tillarni o'qitishda mustaqil ishlarni samarali va to'g'ri tashkillashtirish orqali ularning ijodiy faolligi rivojlantiriladi:
- *Ijodiy yechimlar:* O'quvchilar mustaqil ishlarida yangi g'oyalar va yechimlar ishlab chiqadilar. Bu jarayonda ularning ijodiy fikrlashlari rivojlanadi.
- *O'z fikrini ifodalash:* Mustaqil ishlar orqali o'quvchilar o'z fikrlarini aniq va ravon ifodalashni o'rganadilar. Bu orqali ularning muloqot qilish qobiliyatlarini ham oshiradi.
- *Muammolarni hal qilish:* O'quvchilar mustaqil ishlarida muammolarni aniqlash va ularni hal qilish uchun yangi yondashuvlar ishlab chiqadilar.
- *Innovatsion fikrlash:* Mustaqil ishlar ijodiy faoliyatni oshirish orqali o'quvchilarda innovatsion fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.
- *Baholash mezonlari:* O'quvchilarning mustaqil ishlarini baholashda aniq mezonlar va kriteriyalarni belgilash lozim. Masalan, ijodiy yondashuv, natijalar sifatleri, vaqtni boshqarish va guruhda ishlash qobiliyatlarini aniqlash maqsadga muvofiqdir.
- *O'z-o'zini baholash:* O'quvchilarga o'z ishlarini baholash imkoniyatini berish juda muhim hisoblanadi. Bu ularning o'z-o'zini tahlil qilish qobiliyatini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda chet tillarni o'qitishda mustaqil ishlarni tashkil etish orqali ijodiy faollikni rivojlantirish - ta'lim jarayonining muhim jihati bo'lib, bu o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodkorlik va muammolarni hal qilish

qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Ushbu jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun aniq maqsadlar, resurslar va baholash mexanizmlarini belgilash zarur. O'qituvchilar o'quvchilarning qiziqishlariga va ehtiyojlariga mos ravishda uslublarni tanlab, ularga kerakli qo'llab-quvvatlashni taqdim etishlari lozim.

Shunday ekan ushbu maqolada talabalarning mustaqil ishlarini tashkillashtirish orqali ijodiy faolligini rivojlantirish va ularni samarali qo'llash yo'llarini ochishga harakat qilindi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: TDPU, 2003.
2. Babanskiy, Yu.K. Intensifikatsiya protsessi obucheniya / Yu.K. Babanskiy. - M.: Znanie, 1987.
3. Bloom B.S. Handbook on Formative and Summative Evaluation of Student Learning. N-Y., McGraw-Hill, 1971.
4. Bobojonov B. A., Deutsch für Anfänger. O'quv qo'llanma.–T.: TIQXMMI MTU, 2022.